

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YOZUVCHINING O'LIMGA MUNOSABATINI IFODALASHDA BADIY NUTQ VA XARAKTER TADRIJI

Imomov Elyorjon To'xtasinovich

Alfraganus universiteti, katta o'qituvchi.

e-mail: elyor_imomov@yahoo.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-2884-5336>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek adabiyotida shaxsning ichki muvozanatini yo'qotishi insonni halokatga yetaklovchi asosiy omillardan biri sifatida tahlil qilinadi. S. Moem, U. Hamdam va L. Bo'rixon asarlari qahramonlari misolida ushbu murakkab muammolarning badiiy talqini yoritiladi. Badiiy nutq hamda adibning shaxsiy pozitsiyasi insonga bo'lgan dunyoqarashning mantiqiy davomi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, tahlil qilingan romanlarda mazkur g'oyalarning absurd qahramon konsepsiyasi orqali ifodalanish xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: badiiy nutq, qahramon, shaxs, o'lim, absurd qahramon, o'zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ РЕЧЬ И ЭВОЛЮЦИЯ ХАРАКТЕРА В ВЫРАЖЕНИИ ОТНОШЕНИЯ ПИСАТЕЛЯ К СМЕРТИ

Имомов Элёржон Тухтасинович

Университет Alfraganus, старший преподаватель.

Аннотация.

В статье анализируется проблема утраты личностью внутреннего равновесия как одного из ключевых факторов, ведущих к трагическому исходу, в английской и узбекской литературе. На материале произведений С. Моэма, У. Хамдама и Л. Бурихона рассматривается художественное воплощение данной сложной проблемы. Художественная речь и авторская позиция интерпретируются как логическое продолжение мировоззрения писателя по отношению к человеку. Особое внимание уделяется тому, как в анализируемых романах эти идеи раскрываются через концепцию абсурдного героя.

Ключевые слова: художественная речь, герой, личность, смерть, абсурдный герой, узбекская литература, английская литература.

LITERARY DISCOURSE AND CHARACTER DEVELOPMENT IN EXPRESSING THE WRITER'S ATTITUDE TOWARD DEATH

Imomov Elyorjon To'xtasinovich

Alfraganus University, Senior Lecturer.

Abstract.

This article examines the loss of personal inner balance as one of the principal factors leading to human tragedy in both English and Uzbek literature. The study analyzes the artistic representation of this complex issue through the protagonists of the works by S. Maugham, U. Hamdam, and L. Bo'rixon. Literary discourse and the author's personal standpoint are interpreted as a logical continuation of the writer's worldview concerning human nature. The article also explores how these ideas are embodied through the concept of the absurd hero in the novels under consideration.

Keywords: literary discourse, protagonist, personality, death, absurd hero, Uzbek literature, English literature.

Kirish. XX asr boshlarida o'zbek adabiyotiga jahon nasrining ta'siri sezilarli darajada kuchaydi. Xususan, jadidlar boshlab bergan an'ana negizida millatning qora kunlardan tezroq qutulishi g'oyasi A. Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va Behbudiy kabi zakiy ma'rifatparvarlarning asosiy ilg'or g'oyalardan biri edi. Ular go'zal Turkiston o'lkasining mustamlakadan ozod bo'lib, erkin va farovon hayot kechirishini orzu qilganlar. Jadidlar boshlab bergan ulug'vor g'oyalar va maqsadlar har qanday sohani taraqqiy ettira oladigan darajada oqilona edi. Ana shu boqiy g'oyalarni yo'q qilish, guldek yigitlarni yoshligidan juvonmarg etishga bel bog'lagan mustabid tuzum tufayli ko'plab ziyolilarning qo'li va tiliga kishan solindi. Dunyoga chiqish istagidagi ulug'vor g'oyalarning faqat ong va tafakkurdagina saqlanib qolgani nihoyatda achinarli hol edi. Shunga qaramay, komil jamiyat barpo etish orzusidagi sa'y-harakatlar badiiy asarlarda o'z ifodasini topdi [2; 122-

b.]. Davrning og'riqlarini ko'rsatib berish jadidlarning milliy g'oyasining o'zagini tashkil etardi. Afsuski, bu orzular armon yukiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ingliz adabiyotida dong taratgan S. Moemning **“Oy va sariq chaqa”** asaridagi voqelik Yevropa mamlakatlari bo'ylab ko'p sayohat qilgan, turli joylarda yashab ijod etgan yozuvchining hayotiy tajribasi bilan chambarchas bog'liqdir. U yashagan hududlardagi odamlar ruhiyatini chuqur o'rgangan adib qahramonlari ham o'zi kabi bir joyda muqim yashay olmaydigan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Ko'chish va sayohatlar davomida ertirilgan taassurotlar yozuvchining ko'plab asarlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, o'z taqdiri yo'lida qo'rquv va vahimadan sira tap tortmaydigan obrazlari bugungi o'zbek adabiyotida qissa, roman, hikoya va novella janrlarida ijod qilayotgan qator yozuvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatgani ayni haqiqatdir.

Yozuvchi ijodida o'limning tabiiy va sokin talqinini kuzatamiz. U qahramonlari taqdirini shu qadar ixcham va tabiiy tasvirlaydiki, o'quvchi har bir xarakterni yaxshi ko'rib qoladi va unga nisbatan achinish tuyg'usi paydo bo'ladi. Ana shu badiiy talqin **“Oy va sariq chaqa”** romanidagi Charlz Striklend xarakterida o'zining eng mukammal ifodasini topadi. O'lim adabiyotning azaliy va abadiy mavzularidan biridir. “Hayot nima?” degan savolga faylasuflar va yozuvchilar turlicha javob beradilar.

Rus yozuvchisi Lev Tolstoy **“Iqrornoma”** asarida shunday talqin qiladi: “G'alati bir manzara: odamlar diniy e'tiqodlarga sig'inib, ularga zid tarzda hayot kechirganlarini ko'rganimda, shu e'tiqodlardan bezib ketgandim. Ammo odamlar xuddi shu e'tiqodlarning o'ziga amal qilib yashaganlarini ko'rganimda, ular menga g'oyatda jozibador va oqilona ko'rindi. Shunda men nega bir vaqtlar bu e'tiqodlardan bezganimni, nega ularni ma'nosiz deb hisoblaganimni, endilikda esa nima sababdan ularni qabul qilganimni va juda ma'nodor deb hisoblayotganimni tushundim. Men adashganimni va qanday qilib adashganimni angladim. Men noto'g'ri fikr yuritganim uchun emas, balki gunohkorona hayot kechirganim uchun adashgan ekanman. Men angladim — haqiqat yuzini mendan yashirgan narsa fikrlarimdagi xatolik bo'lmagan ekan, balki favqulodda ishratbozlik, maishatparastlik va nafsoniy istaklarni qondirish yo'lida o'tkazgan hayotim bo'lgan ekan” [4; 155-b.].

Ko'rinadiki, yozuvchi o'z **“Iqrornoma”** sida xato va nuqsonlarni, nafsning insonni ko'zga ko'rinmas, ammo nihoyatda jozibali kuch singari aldashini ochiq tan oladi. U shayton yo'lida qilgan gunohlarini yashirmaydi, aksincha, ularning barchasiga iqror bo'ladi. Tavba va tazarru bilan Allohdan mag'firat so'raydi. Biroq u vaqt allaqachon o'tib bo'lganini ham e'tirof etadi. Sakson yoshga yaqinlashganida pushaymonlikning o'zi unga foyda bermasligini anglagan holda, o'zidan keyingi avlod uning yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini takrorlamasligi uchun bu fikrlarni ochiq bayon etadi. Yozuvchining asl maqsadi ham shundan iborat edi. U umrining oxirida islom dinini qabul qiladi. Natijada nasroniy diniga e'tiqod qiluvchilar tomonidan keskin tanqid qilinadi. Lev Tolstoyning ana shu hayotiy tajribalari Yevropa va rus adabiyotida yaratgan ko'plab asarlarida turli syujet va voqealar tarzida badiiy ifodasini topgan.

“O'lmasdan turib o'lmoqlik” tushunchasi jismoniy o'limni emas, balki ruhiy poklanish, ya'ni katarsis g'oyasini anglatadi. Ayni paytda, Yevropa adabiyotidan kirib kelgan qahramon nutqini individuallashtirish tamoyili har bir asarning syujeti va kompozitsiyasida badiiylilik mezonlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Ertasiga Striklendni olib keldik. Bu ishga ko'ndirish uchun anchagina qat'iyat va sabr-toqat ko'rsatishga to'g'ri keldi. Lekin u haqiqatan ham ancha og'ir xasta edi, shu tufayli Struvening iltijolari-yu mening qat'iyatimga dosh bera olmadi. Biz uni kiyintirgunimizcha, ming'illab so'kinib turdi. Zinadan olib tushdik-da, izvoshga o'tqazib, Struvening ustaxonasiga olib keldik. Striklend bunday harakatlardan obdon tinkasi quridi, ko'rpa-to'shak qilib yotqizib qo'yishimizga ham qarshilik ko'rsata olmadi. Bir yarim oygacha mazasi bo'lmadi. Shunday kunlar ham bo'ldiki, nazarimizda, bir necha soatlik umri qolgandek tuyulardi. Bunday og'ir holatdan faqat Struvening favqulodda qat'iyligi tufayligina omon qolganiga ishonaman. Men umr bino bo'lib bunday bemorni ko'rmaganman. U qaysar va yo'q narsalarni talab qiladigan bemor emasdi, aksincha, hech qachon hech narsadan shikoyat qilmas, hech narsa so'ramas, deyarli hech narsa demasdi. Bizning g'amxo'rligimiz uning g'azabini keltirayotganday edi. O'zini qanday his etayotgani, biror narsa kerakmi yoki kerak emasligini so'raganimizda esa masxaralash bilan javob qaytarar yoxud so'kinardi. Men endi uni butunlay yomon ko'rib qolgandim, kasallik xavfidan qutulishi bilanoq bu haqda unga to'g'ridan to'g'ri aytdim” [5; 53-b.].

Buyuk rassom bo'lish orzusida o'z oilasini tashlab ketgan Charlz Striklend taqdiri, asar xotimasida qanday o'lim topgani hamda bir umr sargardonlik vajidan chekkan uqubatlari hech bir kitobxonni befarq qoldirmaydi. Yozuvchi qahramonning o'y-xayollari bilan Yevropaga xos milliy urf-odatlarini matn tarkibiga singdirishga erishadi. Bunday tasvir usuli amerikalik yozuvchi Ernest Xemingvay asarlarida ham yaqqol o'z tasdig'ini topadi. Sh. Xolmirzayevning qator hikoya va qissalarida ham aynan shunday badiiy nutq tabiati qahramon kechinmalari bilan yozuvchi ijodiy konsepsiyasini tipiklashtiradi. Har bir voqea-hodisa tabiatida monologik, dialogik va polifonik nutq ko'rinishlari real badiiy mohiyat kasb etadi [1; 63-b.].

Yozuvchi Charlz Striklend obrazi orqali jahon adabiyotida yangicha uslubiy-shakliy o'ziga xoslikning paydo bo'lishiga katta hissa qo'shadi. Aynan shu tamoyil Somerset Moemning badiiy izlanishlarida falsafiy-psixologik talqinning originalligini namoyon etadi. Insoniyat o'zining yetib kelgan manzillari va makonlarida adashishlari, yo'qotishlari, oila va qadriyatlar kesishmasida insonlarning yashash maslagi naqadar o'zgarib ketganini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlar ekan, Charlzning rassom bo'la olmasligi, ya'ni bir iste'dodning zavol topishi orqali yozuvchi har qanday davrda ham iste'dodli insonning jamiyat uchun keraksiz bo'lib qolishi muammosini ko'rsatishga intiladi. Qahramon mutlaqo yolg'iz qoladi. Chunki uning boradigan uyi, Vatani hamda uni tushunadigan biror odami bo'lmaydi.

Yolg'izlik va ayriliq talqinida adib Charlz Striklend taqdiriga shu qadar mehr bilan baho beradiki, uni ko'rgan odamda maishat va ichkilikdan boshi chiqmaydigan inson haqidagi tasavvur uyg'onadi.

Agar Charlz Striklend o'rtamiyona rassom bo'lganida, yozuvchi bu qahramonni asarning markaziga qo'ymagan bo'lardi. Chunonchi, asar XX asr boshlaridagi Yevropaning Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davridagi ma'naviy

tanazzulining yorqin namunasi sifatida baholanadi. Axir u oddiy yo'lovchi emas, balki haqiqiy adabiy qahramondir. Safar xotiralari, odamlar bilan muloqot, orttirilgan do'st-u yorlar, tanishlar, og'riqlar va musibatlar bosh qahramon qalbinigina bezovta qiladi. Vokzallar va mehmonxonalardan haydalanishlar, ko'plab joylarda darveshona, faqirona kun kechirish, ulug' qadriyatlarining oyoqosti bo'layotgan asr fojiasi asarda chuqur badiiy ifodalanadi. Charlz Striklend ana shunday murakkab shaxs bo'lib, roman poetik konstruksiyasida alohida mavqe kasb etadi.

Prof. D. Quronov badiiy nutqning tasviriy imkoniyatlari haqida to'xtalar ekan, uning nasriy, xususan, epik asarlarda yanada yorqin va keng ko'lamda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi: "Badiiy tilning tasviriyligi nasriy (epik) asarlarda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Lirik asarlarda tasvirlangan tashqi manzara lirik qahramon ichki olamiga olib kiruvchi vositaga (ya'ni, unda voqelikning shu maqsadga yetish uchun zarur fragmentlariga qalamga olinadi) bo'lsa, epik asarlarda tasvirlangan badiiy voqelik o'zicha mustaqil, obyektivlashgan manzara sanaladi. Shu bois ham epik asarlarda ijodkor ko'zi bilan ko'rilgan voqelik o'quvchi xayolida ham jonlanadi. O'quvchi asar voqealari yuz berayotgan joyni, qahramonlarning xatti-harakatlarini go'yo ko'rib turadi" [3; 113-b.].

Mazkur fikr epik asarlarda badiiy tasvir faqat voqea sodir bo'layotgan makon, zamon yoki qahramonlarning tashqi qiyofasini ifodalash bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Bunday tasvirlar o'quvchining tasavvurida yaxlit badiiy olamni shakllantiradi, voqelikni hissiy idrok etishiga hamda asar qahramonlari bilan ma'naviy-ruhiy yaqinlik o'rnatishiga xizmat qiladi. Muallif tomonidan tanlangan har bir detal, portret chizig'i, peyzaj unsuri, xatti-harakat yoki dialog qahramon xarakterining muayyan jihatini ochishga, voqealar rivojining ichki mantiqini anglashga yordam beradi. Shu ma'noda, badiiy nutq o'quvchi ongida voqelikning oddiy nusxasini emas, balki ijodkorning estetik qarashlari asosida qayta yaratilgan obrazli manzarasini hosil qiladi.

Manbada izohlanishicha, o'quvchining o'ziga ma'qul qahramon bilan ichki dialogik suhbatga kirishishi asar voqeligini chuqurroq his etishga olib keladi. O'quvchi qahramonning so'zlari, xatti-harakatlari, qarorlari va ruhiy kechinmalarini kuzatish jarayonida unga nisbatan muayyan munosabat shakllantiradi. Ayrim holatlarda qahramonning tanlovini ma'qullaydi, uning iztiroblariga hamdard bo'ladi, ayrim vaziyatlarda esa uning xatti-harakatlariga tanqidiy baho beradi. Natijada kitobxon badiiy matnni passiv ravishda qabul qiluvchi emas, balki voqealar rivojini tahlil qiluvchi, qahramon bilan bahsga kirishuvchi va uning hayotiy pozitsiyasini o'z qarashlari bilan qiyoslovchi faol subyektga aylanadi.

Bunday ichki muloqot, ayniqsa, qahramon murakkab axloqiy yoki psixologik tanlov qarshisida qolgan vaziyatlarda kuchayadi. O'quvchi uning o'rniga o'zini qo'yib ko'radi, muayyan vaziyatda qanday yo'l tutishi mumkinligini tasavvur qiladi hamda qahramon qarorining sabab va oqibatlarini anglashga intiladi. Shu tariqa, badiiy asardagi dialoglar faqat personajlar o'rtasidagi nutqiy almashinuv vazifasini bajarmaydi, balki o'quvchi va qahramon o'rtasida bilvosita kommunikativ aloqa yuzaga kelishiga ham xizmat qiladi. Qahramonning individual nutqi, uning fikrlash usuli, hissiy holati va dunyoqarashi o'quvchi tomonidan izchil idrok etilib, obrazning ichki mohiyatini ochuvchi muhim vositaga aylanadi.

Asardagi voqealar silsilasi rivojlangan sari qahramon xakteri ham bosqichma-bosqich namoyon bo'lib boradi. O'quvchi dastlab uning tashqi harakatlari va nutqiga e'tibor qaratsa, keyinchalik bu harakatlarning ichki motivlarini, ruhiy ziddiyatlarini, orzu-intilishlari hamda hayotiy maqsadlarini anglay boshlaydi. Qahramonning ruhiy holati, ichki monologlari, ikkilanishlari va kechinmalari kitobxonni uning shaxsiy olamiga olib kiradi. Bu esa obrazni shunchaki voqealarda ishtirok etuvchi personaj sifatida emas, balki murakkab ruhiy tuzilishga, individual dunyoqarash va axloqiy pozitsiyaga ega inson sifatida qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, o'quvchining qahramon bilan dialogik munosabati asarning estetik va tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi. Chunki kitobxon qahramon boshidan kechirgan voqealarni his etish orqali yaxshilik va yomonlik, sadoqat va xiyonat, jasorat va qo'rquv, muhabbat va nafrat kabi tushunchalarning mohiyatini chuqurroq anglaydi. Badiiy obrazning hayotiy tajribasi o'quvchining shaxsiy tajribasi bilan uyg'unlashib, uning axloqiy-estetik qarashlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli badiiy nutq va obrazlar tizimi o'quvchini voqelikni nafaqat ko'rish va tasavvur qilishga, balki unga munosabat bildirish, mushohada yuritish hamda muayyan xulosalarga kelishga undaydi. Demak, epik asarlardagi tasviriylik, dialog, ichki monolog va ruhiy tahlil vositalari o'quvchi bilan badiiy qahramon o'rtasida o'ziga xos kommunikativ-estetik munosabatni yuzaga keltiradi. Mazkur munosabat jarayonida kitobxon asar voqeligiga tobora chuqurroq kirib boradi, qahramonning tanlovi va ruhiy kechinmalarini anglaydi, voqealarni uning nigohi orqali baholash imkoniga ega bo'ladi. Natijada badiiy matn o'quvchi xayolida jonlangan obyektiv manzaragina emas, balki uning his-tuyg'ulari, tafakkuri va hayotiy qarashlariga ta'sir etuvchi mazmunli estetik hodisaga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Doniyorova Sh. Shukur Xolmirmirzayev hikoyalarining badiiy-uslubiy o'ziga xosligi: filol. fanlari nomzodi diss. – T.: O'zFA TAI, 2000. – 63 b.
2. Karimov H. O'zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2008. – 122 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007. – B. 113.
4. Lev Tolstoy. Iqronoma. – T.: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 155.
5. Somerset Moem. Oy va sariq chaqa. – T.: Sharq, 2006. – B. 53.